



## ARAB HIKOYANAVISLIGIDA MIFOLOGIK OBRAZLAR SEMANTIKASI (LAYLO AL-USMON ASARI MISOLIDA)

Ahmedova Shahlo Irgashbayevna

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Alfraganus universiteti

(o'zbekiston, toshkent)

+(99890) 3167071

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17975359>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-dekabr 2025 yil

Ma'qullandi: 14-dekabr 2025 yil

Nashr qilindi: 18-dekabr 2025 yil

### KEYWORDS

*mifologik obraz, ramz, Ko'rfaz arab adabiyoti, hikoyanavislik, Laylo al-Usmon, chumoli timsoli, pamflet, fantastika..*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada Ko'rfaz arab mamlakatlari hikoyanavisligida mifologik obrazlarning o'rni va ularning badiiy-funksional yuklamasi Laylo al-Usmon ijodi misolida tahlil qilinadi. Ayniqsa, «Mallarang chumolilar» hikoyasi asosida mifologik timsollarning ijtimoiy-siyosiy, ramziy va mafkuraviy ma'nolari ochib berilgan. Maqolada chumoli obrazining jahon va islom mifologiyasidagi talqinlari, uning yovuzlik va tajovuz ramzi sifatida badiiy qayta ishlanishi ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, obrazlar orqali muallifning estetik ideali, jamiyat va hokimiyatga munosabati aniqlanadi.*

Obraz adabiy asarning eng muhim va ta'sirchan unsuridir. Aynan obraz orqali ijodkor voqelikning o'z tafakkuri va hissiyoti olamidan o'tkazib, uni asarida o'ziga xos badiiy shakllarda tiklaydi, jonlantiradi. Shuning uchun ham obraz til vositasida g'oyaviy-estetik mazmunni o'zida mujassamlashtirgan tushuncha bo'lib, u ijodkorning hayotiy kuzatishlari asosida shakllanadi.

Biz Laylo al-Usmon hikoyalarining obrazlar tizimini o'rganar ekanmiz, shu masalaga yuqorida keltirgan nuqtai nazardan yondashamiz. Adibaning boy va o'ziga xos obrazlarida ularning dunyoqarashi, mafkuraviy pozitsiyasi, estetik qarashlari, ijodiy tajribasi, qolaversa, ruhiy olami mujassamlashgan. Bu adiba voqelik hodisalarini loqaydlik bilan fotosurat kabi tasvirlamasdan, balki ularni o'z iste'dodi tabiatidan va dunyoqarashidan kelib chiqib badiiy gavdalantirishga harakat qiladilar.

Adiba yaratgan obrazlar tizimining keng doirasiga tasvirlangan narsalar, predmetlar, ishtirok etuvchi shaxslar obrazlari kiradi. Albatta, keng ko'lamdagi barcha obrazlar inson uchun xizmat qiladi va uning shaxsi atrofida aylanadi. Ayniqsa, inson obrazi bilan bog'liq majoziy ma'no asosida yaratilgan obrazlar murakkab xarakterga ega bo'lib, mualliflardan iste'dod va taxayyul parvozini, hayot qonunlarini bilishni, muayyan muhitni ishonarli aks etishni talab qilgan.

Shu ma'noda Laylo al-Usmonning «Mallarang chumolilar» («النمل الأشعر») [1] hikoyasini misol qilib keltirishimiz mumkin. Mazkur hikoya g'ayritabiiy tasvir va fantasmagoriya elementlariga ega bo'lib, ular shaharni egallagan malla chumolilar timsolida mujassamlashgan. Adibaning mazkur «Mallarang chumolilar» hikoyasi Kuvayt maktablari yuqori sinf o'quvchilari uchun adabiyot darsligiga kiritilgan [117:64-70].

Hikoya oddiy voqealar tasviridan boshlanib, ularni o'rta maktabning yuqori sinf o'quvchisi o'spirin qiz Arab tomonidan hikoya qilinadi: «Bizning uyimizda kichkina qora chumolilar paydo bo'ldi. Ularning soni ko'payib, ancha bo'lib qoldi. Biz ularga tegmadik, ularning ko'payishiga imkon yaratdik. Biz ularga yuqoridan qarardik va juda zaif mavjudotlarni ko'rar edik. Ularni bosib tashlashni gunoh deb bilar edik. Chumolilar bizning mehribonligimizdan foydalanib, uyda burgadek ko'payib ketdi. Ular o'z inlarini bizning uyimiz tagidan kavlab, o'z omborlarini bizning yemishlar bilan to'ldira bordi». [1:64]

Biroq keyin qora chumolilar bosqinining o'sishi bilan, bayon uslubidagi tig'izlik ham orta boradi. Real voqelikka fantastika unsurlari qo'shilib ketdi: «Men chumolilarning yig'ilib turgani va go'yo nimadir deb shivirlaganday bo'lgani, kelishib olgani va bir-biriga ergashib, shiftga tirmashganini ko'rdim». [1:64]

Chumolilar butun uyni ishg'ol qilganidan so'ng, Arab ularga qarshi kurashishga qaror qiladi. Oilada bir paytlar onaning singlisi beshigiga qora chumolilar yopishib olgani sababli o'lganligi to'g'risidagi rivoyat saqlanib qolgan edi. Biroq bu narsa onaga saboq bo'lmadi va u Arabga shafqatsizlik qilmaslikni, chumolilar «zaif mavjudot» ekanligini uqtirmoqchi bo'ladi. Natijada chumolilar jamoatchilik va hokimiyatning beparvoligi tufayli ko'p joylarni - ko'chalar, do'konlar, davlat muassasalarini egallab oladi.

Qora chumolining o'rniga ochko'z hujumkor malla chumoli keladi. Qora chumolilar ularga yo'l ochgan ekan. Ular odamlarning samarasiz qarorlar qabul qilishiga o'rganganligi va bu ularning hujumi uchun hech qanday to'siq bo'la olmasligini tez tushunib oladi. Faqat Arab chumolilar bilan o'zicha kurashadi. U jamiyat tuzadi, aholi o'rtasida targ'ibot olib boradi, politsiyaga, hokimiyatga, nihoyat hukmdorga murojaat qiladi. Hokimiyatning harakatlari befoyda va kulgili: ular yo'llarga chumolilarni boshqa tomonga burib yuborish uchun shakar sepib qo'yadi. Endi hikoya ochiq pamflet ko'rinishini olib, unda ochiq tarzda hokimiyat va politsiyaning harakatlari ustidan kulgu yangraydi, ularning zaif va layoqatsiz ekanliklari fosh qilinadi. Bularning natijasida odamlar o'z uylarini tashlab chiqishga majbur bo'ladilar. Shunday qilib, hikoya aholining shahardan chiqib ketishi bilan yakunlanadi. Syujetning an'anaviy yo'nalishi ikkita kiritma hikoya bilan uziladi. Birinchi hikoya go'dakning chumolilar yopishgan beshikda vafot etishi bo'lib, ikkinchi hikoya Arabning sehrli tushi bo'lib, unda malla chumoli obrazi birinchi bor gavdalanadi. Bayonning so'nggi qismlari xuddi voqea joydan berilayotgan harbiy reportajga o'xshaydi.

Umuman olganda, chumoli obrazi o'rta asr arab adabiyotida [5:442] va jahon xalqlari mifologiyasida ko'p gavdalanadi. Hatto Qur'oni Karimda «An-naml» («Chumoli») surasining 17-19 oyatlarida Sulaymon payg'ambar haqidagi rivoyat ichida chumolilar haqida ibratli kichkina qissa bor: «17. Sulaymon (xizmati) uchun jin, ins va qushlardan iborat lashkarlari to'planib, tizilgan hollarida turdilar. 18. To ular chumolilar vodiysiga yetganlarida, bir chumoli: «Ey chumolilar! Uyalaringizga kiringiz, yana Sulaymon va uning lashkarlari o'zlari sezmagani hollarida sizlarni ezib ketmasinlar!» - dedi. 19. (Sulaymon) uning so'zidan kulib, tabassum qildi va dedi: «Ey, Rabbim! Menga va ota-onamga in'om etgan ne'matingga shukr qilishga va O'zing rozi bo'ladigan yaxshi amallarnigina qilishga meni muvaffaq etgin va meni O'z fazling bilan solih bandalaring qatoriga kiritgin!» [2:378]

Jahon mifologiyasida chumoli obrazi talqini aksariyat hollarda o'zini biologik xususiyatlaridan, ya'ni ularning kichkina hajmidan, ko'pchiligidan, harakatchanligidan, jamoa bo'lib yashashidan va boshqa xislatlaridan kelib chiqib izohlanadi. Chumolilarning birgalashib

yashashi va faoliyati, muhitga moslashishi asotirlarda va madaniy-tarixiy an'analarda uning obrazida turli ramziy ma'nolarni mujassamlashtirishga olib keladi. Ba'zi birlarida chumoli adolat, haqqoniylik, mehnatsevarlik ramzini ifodalaydi, boshqalarda yovuz kuch - vayronagarchilik ramzidir. Musulmon asotirlarida chumoli o'nta samoviy hayvonlaridan biridir. [3:181]

Laylo al-Usmon ko'rganimizdek, chumoli obrazini vayronagarchilik va zo'ravonlik ramzi sifatida ishlatadi. Hikoyada chumoli obrazi haddan tashqari mubolag'alashtirilgan. Bu pamfletga xosdir. Bu janrda bir narsani fosh qilish maqsadida fantasmagoriyaga murojaat qilinadi. Shunga qaramay, muallif tomonidan chumoli obrazining yovuzlik timsoli sifatida tanlanishi mantiqdan xoli va birinchi qarashdagi kabi g'ayritabiiy emas.

Demak, adiba malla chumoli timsolini buyuk yovuzlik ramzi sifatida bejiz tasvirlamaydi. Hikoyada unga qarshi kurashmagan jamiyat uning ko'payishiga sabab bo'ldi: ona ularga avval boshdan tegishni man qildi, baqqol o'z do'konidan chetroqqa qopdagi shakardan sepib qo'ydi, bu bilan chumolilarni chalg'itmoqchi bo'ldi, politsiyachilar chumolilar yo'lida ularning binosiga tegmasligi uchun bir qop don qo'yishdi va boshqa tomonga burib yuborishadi, hokimiyat vakillari kurashish uchun qurol topa olmay aholiga uylarini tashlab shahardan chiqib ketishni buyurdi.

Agar hikoyaning o'tgan asr 80-yillarida Yaqin Sharq mintaqasi sayyoraning olovli nuqtalaridan biriga aylangan davrda yozilganligini e'tiborga olsak, chumolilar yurishi bilan qanday vaziyatlar nazarda tutilayotganligini payqash qiyin emas. Birinchi navbatda, bu davrda o'zini tajovuz jihatlarini namoyon qilgan sionizm, shuningdek, davom etayotgan fashizm va taassubchilik, xorijiy aralashuvlardir. «Arab adibalari qomusi»[6] ta'kidlanganidek, chumoli timsoli ko'p mazmunni ifodalovchi ramziy ma'nolarga ega.

Ta'kidlash lozimki, Laylo al-Usmonning «Mallarang chumolilar» pamflet hikoyasi o'zining yaqqol keskin va qisqa iboralarga boyligi bilan ajralib turadi. Syujet qismlari - voqealar, personajlar, vaqt, joy - yaxlit birlikni tashkil qilib, undan bironta qismni chiqarib tashlash qiyin. Mazkur kiritma hikoyalar ham matn bilan uyg'unlashib ketadi. Badiiy tugun o'quvchi e'tiborini o'ziga jalb qiladi va chumolilar bilan odamlar o'rtasidagi kurash yechimini kutish uni iztirobda ushlab turadi. Yechim kutilmaganda Arabning onasi tomonidan «zaif mavjudotlar» - chumolilar bosib kelgan shaharni tashlab chiqishini anglab yetishida zohir bo'ladi.

*«Onam birdan yig'lab yubordi va bu yig'i uzoq davom etdi».* [1:71]

Hikoyada ba'zi urf-odatlar, udumlar, shu jumladan, bemorlarni davolashda xalq qo'llaydigan odatlar qiziqarli tasvirlanadi: juma kuni bemor bolaning onasi masjid eshigi oldida bir kosa suv bilan turadi: -namozdan keyin masjiddan chiqayotganlar kosaga dam solgach, ona bolaning yuziga suv sepadi va uni ichiradi. Ikkinchi odat: bemorga Qur'on oyatlari va Alloh ismlari yozilgan kosadan suv berish; uchinchi odat - bemorga tumor va duolar taqib qo'yish. Ikkinchi va uchinchi odat o'zbek halqi orasida ham uchraydi, ammo birinchisi kuvaytliklarga xosdir.

Hikoyada personajlar obrazi umumlashtiruvchi xarakterga ega bo'lib, ular har xil kuchlarni ifoda qiladi: ona va do'kondor - loqayd va harakatsiz jamiyat, politsiya va mahalliy hukumat - zaif xokimiyat, chumolilar - yovuz kuch, demakdir. Ularga faqat Arab va uning maktabdosh do'stlari qarshi turishadi. Yosh, serg'ayrat o'smirlar jur'at va qat'iy iroda bilan dushmanga qarshi imkon qadar kurashadiganlar shular edi. Hikoya qahramonining ismi Arab ekanligi bejiz emas, bu so'z «arab» so'zidan olingan. Vatanparvarlik ramzi bo'lgan bu qiz

shaharga o'z uyini ozod qilish uchun albatta qaytadi. Shu bilan falastin muammosining ramzi ham hikoyada yaqqol gavdalanadi, unda o'z yerlaridan haydalgan xalq taqdiri majoziy bayon qilinganligini ko'ramiz.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki, hikoya tahlili orqali biz Laylo al-Usmo'ning o'zi tasvirlayotgan obrazlarini o'z dunyoqarashi, estetik ideali nuqtai nazaridan boshqarib borishini ko'rdik. Bilvosita tasvirlangan obrazlar orqali yozuvchi hayot manzaralariga majoziy yoki ramziy tus berib ularni ijodiy maqsadiga muvofiq ravishda rivojlantirdi va kitobxonga estetik ta'sir ko'rsatdi. Yozuvchi obrazlarining estetik-tarbiyaviy qiymati to'g'risida gapirar ekanmiz, u albatta o'z obrazlari orqali muayyan bir g'oya-fikr ifodalaganligini ta'kidlash lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. العثمان ليلي. النمل الأشقر. الأدب و النصوص للصف الرابع الثانوي. الكويت، ١٩٨٩-١٩٩٠ – ص ٧٤-٧٦.
1. Куръони Карим (маъноларининг таржима ва тафсири). – Т.: Тошкент ислом университети нашриёти матбаа бирлашмаси, 2007. – 618 б. (32)
2. Мифы народов мира. – М.: Советская энциклопедия, 1992. Т.2. – 719 с. (86)
3. Комсомольская правда. от 26- 2 август. –М., 2007. –С.8. (66)
4. Фильштинский И.М. История арабской литературы. V – начало X века. – М.: Наука, 1985. – 528 с.
5. ٢٠٥-٣٢٣. ص - ٢٠٠٢، القاهرة، الخليج و الجزيرة السابع الفصل، العربية الكاتبة موسوعة، للمستقبل ذاكرة.
6. 7. Akhmedova, Shakhlo Irgashbaevna (2022) THE ISSUE OF WOMEN'S PLACE IN THE FAMILY AND SOCIETY IN THE CREATION OF GULF ARAB COUNTRIES' LITERATURE // ORIENSS. 2022. №12. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/the-issue-of-womens-place-in-the-family-and-society-in-the-creation-of-gulf-arab-countries-literature>.
7. 8. Ахмедова, Ш. (2021). Новые художественно-методологические принципы сторителлинга в ОАЭ. Востоковедения, 1(1), 4–13. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/oriental-studies/article/view/15813>
8. 9. Akhmedova, Shakhlo Irgashbaevna. (2021). "Ideological and artistic searches in the short stories of the arab countries of the persian gulf at the beginning of the XXI century." Asian Journal of Multidimensional Research 10.10,-P. 838-842.
9. 10. Ahmedova, Shahlo Irgashbaevna. (2022). FORMATION AND IMPROVEMENT OF REALISTIC STORY IN KUWAIT AND BAHRAIN LITERATURE. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1.Special Issue 6,-P. 409-414.
10. 11. Ahmedova, Shahlo Irgashbaevna. (2023). LITERARY CREATION IN THE GILF ARAB COUTRIES . // Arab globallashuv davrida innovasion yondashuvlar va oqitish metodikasi. OzDJTU. Dekabr. 2023.-P124-129 <https://inlibrary.uz/index.php/arabic-language/article/view/28428>